

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
427 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari doktori, PhD

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, akademik
Sharipov Kongratbay Avazimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, TDIU kengash kotibi
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Botirali Roxatliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dots.nt
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor. Buxoro davlat texnika universiteti

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil
28-avgustdagi 360/5-son
qarori bilan "Dissertatsiyalar
asosiy ilmiy natijalarini chop
etishga tavsiya etilgan milliy
ilmiy nashrlar ro'yxati"ga
texnika va iqtisodiyot fanlari
bo'yicha "Muhandislik va
iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga
kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilovich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Banklarda moliyaviy xavfsizlikning o'ziga xos jihatlari.....	398
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda byudjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish.....	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	

KORPORATIV BOSHQARUVDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Saidaxmedova Aida Mirzayevna

TDIU "Bank ishi" kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda byudjetdan tashqari moliyaviy mablag'lardan foydalanishning dolzarbligi va davlat xaridlarining tutgan o'rni yoritiladi. Tadqiqot davomida o'zbek va xorijiy olimlarning ilmiy yondashuvlari, shuningdek, monografik, ekspert va tizimli tahlil usullari asosida moliyaviy resurslarni boshqarishda davlat xaridlarining ta'sirchan jihatlari o'rganildi. Maqolada mavjud resurslardan oqilona foydalanish, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash va xarid siyosatini takomillashtirishga doir takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, oliy ta'lim, byudjetdan tashqari mablag'lar, davlat xaridlari, moliyalashtirish, iqtisodiy subyektlar, narx parametrlari, moddiy-texnika baza, moliyaviy barqarorlik.

Abstract: This article explores the relevance of utilizing extrabudgetary financial resources to enhance the efficiency of corporate governance in higher education institutions and highlights the role of public procurement in this context. The study is grounded in analytical approaches developed by Uzbek and international scholars and employs monographic, expert, and system analysis methods. The paper presents proposals for effective financial resource management, strengthening the financial sustainability of universities, and improving procurement policies.

Keywords: corporate governance, higher education, extrabudgetary funds, public procurement, financing, economic entities, price parameters, material and technical base, financial sustainability.

Аннотация: В статье раскрывается актуальность использования внебюджетных финансовых ресурсов для повышения эффективности корпоративного управления в высших учебных заведениях, а также роль государственных закупок в этом процессе. Исследование основано на аналитических подходах узбекских и зарубежных ученых с применением монографического, экспертного и системного анализа. Особое внимание уделяется оптимальному управлению финансовыми ресурсами, обеспечению финансовой устойчивости ВУЗов и совершенствованию механизмов государственных закупок.

Ключевые слова: корпоративное управление, высшее образование, внебюджетные средства, государственные закупки, финансирование, экономические субъекты, ценовые параметры, материально-техническая база, финансовая устойчивость.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan islohotlar natijasida mamlakatda investitsiyalar oqimi sezilarli darajada oshdi. Xususan, 2019–2024 yillar davomida iqtisodiyotda o'zlashtirilgan jami investitsiyalar hajmi 2,1 barobarga, shu jumladan markazlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2,8 barobarga ko'paygan. Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida investitsiyalarning ulushi 2019 yildagi 21 foizdan 2024 yil yakuniga kelib 38 foizdan ortiq darajaga yetgan. Shu davr mobaynida tashqi savdo aylanmasi hajmi ham 1,7 barobarga oshgan. Mazkur ko'rsatkichlar investitsiyalar va tashqi iqtisodiy faollikning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi (1,24 barobar) va qurilish sohasi (1,44 barobar) o'sishiga sezilarli turtki bo'lganligini ko'rsatadi. Natijada ularning YaIM tarkibidagi ulushi 24,1 foizdan 33,2 foizgacha o'sgan¹.



Bu raqamlar O'zbekistonda barcha soha va yo'nalishlarda olib borilayotgan izchil islohotlar samarasi o'laroq barqaror o'sish kuzatilayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, eksport salmog'ini oshirish, import hajmini kamaytirish hamda ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan strategik yo'nalishlar davlat siyosatining markazida turibdi.

Ta'lim tizimi ham ushbu keng qamrovli islohotlar doirasida muhim o'rin egallab, ayniqsa oliy ta'limda o'quv jarayonini modernizatsiya qilish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish ustuvor vazifalar qatorida belgilanmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, har qanday mamlakatning iqtisodiy taraqqiyoti bevosita ta'lim va ilm-fan rivoji bilan chambarchas bog'liqdir.

Oliy ta'lim muassasalari nafaqat ilmiy-ma'rifiy markaz, balki iqtisodiy jarayonlarning faol ishtirokchisi sifatida ham e'tiborni tortadi. Ular iqtisodiy muomalada keng qamrovli iste'molchi va sotuvchi sifatida namoyon bo'lib, tovarlar, ishlar va xizmatlar xarid qilishda davlat xarid tizimi orqali faol ishtirok etadi. Ushbu tizim jahon amaliyotida o'zining shaffofligi, raqobatbardoshligi va samaradorligi bilan tan olingan mexanizmlardan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlari sohasining rivojlanishi va takomillashtirilishi, shuningdek, xaridlar hisobini tashkil etish va uning oliy ta'lim tizimidagi samaradorligini baholash bo'yicha bir qator xorijiy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, I.I. Smotritskaya, S.A. Bordunova, A.I. Vorobieva, Ye.A. Mizikovskiy, E.A. Orlova, S.V. Pankova, A.A. Piskunov, K.V. Razuvaeva, T.M. Rogulenko, Y.V. Sokolova, I.A. Tulseva, A.E. Sheveleva, T.G. Sheshukova va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida davlat xaridlarining institutsional asoslari, moliyaviy nazorat mexanizmlari va raqobat muhitini shakllantirishga oid jihatlar keng tahlil qilingan.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan M.P. Yunusov, D.B. Qosimov, U. Urakov, U. Burxonov va Atamuradov [5] kabi tadqiqotchilar ham davlat xaridlari tizimi, byudjetdan tashqari mablag'larning samarali boshqaruvi, moliyalashtirish jarayonlari va ularning ta'lim tizimidagi ahamiyati haqida o'z ilmiy ishlari orqali muhim xulosalar berganlar.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish va moliyaviy resurslar samaradorligini oshirish borasida hali ham yechimini kutayotgan qator muammolar mavjud. Bu masalalar chuqur tahlil va amaliy takliflarni ishlab chiqishni talab qiladi. Natijada, oliy ta'lim muassasalarida davlat xaridlarini samarali tashkil etish, moddiy-texnika bazani mustahkamlash hamda iqtisodiy barqarorlikka erishishda davlat xaridlarining roli tobora ortib bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot doirasida oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va mavjud moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, monografik tahlil, ekspert baholash va tizimli tahlil usullari asosida mavjud holat o'rganilib, muammolar tahlil qilindi va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi. Tanlangan metodologik yondashuvlar tadqiqot natijalarining asoslanganligini ta'minlashga, shuningdek, oliy ta'lim tizimidagi moliyaviy mexanizmlarni yanada takomillashtirish yo'llarini aniqlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Oliy ta'lim muassasalarining taraqqiyoti va faoliyat samaradorligi, avvalo, ularning moliyaviy erkinligi va mavjud moliyaviy resurslardan oqilona, maqsadli hamda samarali foydalanish darajasiga bevosita bog'liqdir. Aynan shu omil bugungi kunda oliy ta'lim tizimida dolzarb masala sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizdagi OTMLar moliyaviy mustaqillikni ta'minlashda, asosan, byudjetdan tashqari to'lov-kontrakt mablag'lari hamda rivojlantirish jamg'armasi mablag'lariga tayanadi.

Ushbu mablag'lardan samarali foydalanish maqsadida OTMLar tomonidan moddiy-texnik bazani mustahkamlash, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, bino va inshootlarni mukammal hamda joriy ta'mirlash kabi yo'nalishlarga mablag' yo'naltirish mexanizmlari ishlab chiqilgan. Bu xarajatlar, belgilangan tartibga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi tovar-xom ashyo birjasi orqali ochiq va shaffof savdolar asosida amalga oshiriladi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, byudjetdan tashqari mablag'larning samarali tasarrufi, OTMLarda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, infratuzilmani rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat xaridlarining shaffofligi, raqobatbardosh muhitni ta'minlashi va moliyaviy resurslar ustidan nazoratni kuchaytirishi OTM faoliyatining strategik maqsadlariga erishishiga xizmat qilmoqda.

2024-yil 20-oktabrdan 2024-yil 15-dekabrgacha bo'lgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan 1 AQSh dollarining o'zbek so'miga nisbatan rasmiy kursi asta-sekin oshib borgan. Ushbu davrda dollar kursi 10 371,76 so'mdan 10 463,12 so'mgacha ko'tarilib, jami 91,36 so'mga yoki taxminan 0,88 foizga oshgan. Eng past kurs 2024-yil 20-oktabrda va 2024-yil 17-noyabrda qayd etilgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich 2024-yil 15-dekabrda kuzatilgan. Mazkur o'sish tendensiyasi import qilinadigan mahsulotlar narxiga ta'sir qilishi mumkin bo'lib, davlat xaridlarida valyuta tebranihlari hisobga olinishi zarurligini ko'rsatadi(1-jadval).

1-jadval. 2024-yil 20-oktabrdan 2024-yil 15-dekabrgacha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan xorijiy valyutalarga nisbatan o'zbek so'mining rasmiy kursi [3].

vaqt	1 Dollar AQSh (USD)
2024-10-20	10371,76
2024-10-27	10359,88
2024-11-03	10366,86
2024-11-10	10378,88
2024-10-20	10371,76
2024-11-17	10390,93
2024-11-24	10414,86
2024-12-01	10427,38
2024-12-08	10443,07
2024-12-15	10463,12

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son¹ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3237-son² qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlar tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3166-son³ qarorlari davlat xaridlari tizimini takomillashtirishda muhim normativ-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

2019–2024-yillar davomida ayrim oliy ta'lim muassasalarida davlat xaridlari orqali tuzilgan shartnomalarning bekor qilinishi holatlari kuzatilgan. Xususan, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida 18 ta shartnoma bekor qilingan bo'lib, umumiy summasi 986,8 million so'mni tashkil etadi. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida esa 8 ta shartnoma

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4812-son qarori: <https://lex.uz/docs/-4964633>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-avgustdagi "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3237-son qarori: <https://lex.uz/docs/-3316123>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlar tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3166-son qaror: <https://lex.uz/docs/-3290746>



bekor qilinib, ularning umumiy summasi 352,6 million so'mni tashkil etgan. Bu holatlar davlat xaridlari tizimida shartnoma tuzish, bajarish yoki monitoring jarayonlarida ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatadi va moliyaviy intizom, shaffoflik hamda nazorat mexanizmlarining kuchaytirilishini talab etadi(2-jadval).

2-jadval. Ba'zi OTMlarda davlat xaridlari orqali tuzilib bekor bo'lgan shartnomalar soni va summasi [7].

OTM nomi	Yillar	Bekor bo'lgan shartnomalar soni	Summasi, mln. so'm
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi	2019-2024 yillar	18	986,8
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti	2019-2024 yillar	8	352,6

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy erkinligi ularning barqaror rivojlanishi, zamonaviy va raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish salohiyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan muhim omillardan biridir. Shu nuqtai nazardan, OTMlar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, raqamli ta'limni joriy etish, bino va inshootlarni mukammal hamda joriy ta'mirlash ishlari uchun ajratilayotgan mablag'larning "Davlat xaridlari" tizimi orqali tartibga solinishi nazariy jihatdan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Biroq amaliyotda davlat xaridlari mexanizmining ayrim jihatlari OTMlarda mavjud byudjetdan tashqari moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni cheklayotgan holatlar ham kuzatilmoqda. Jumladan, vaqt omili nuqtai nazaridan olib qaralganda, respublikamizda tezkor iqtisodiy muhit, kuchayib borayotgan raqobat, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabchanlik va raqamli texnologiyalarga o'tish ehtiyoji zamonaviy multimedia vositalari, kompyuter texnikalari kabi ko'plab texnologik mahsulotlarning xorijdan import qilinishini talab etadi. Bu esa ularni xarid qilish jarayonida davlat xaridlariga xos bo'lgan byurokratik bosqichlar va vaqt yo'qotishlar tufayli ta'lim jarayonini zamon talablariga mos tarzda tashkil etishda muayyan to'siqlarni keltirib chiqaradi.

1-jadval misolida ko'rish mumkinki, OTMlar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan o'quv-laboratoriya jihozlari, kompyuter texnikasi va mebellar tanlov (tender) asosida sotib olingan hollarda, bu jarayonlar ko'p vaqt talab qilmoqda. Shuningdek, tender e'lonlariga javob beruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning barchasi ham halollik, shaffoflik va adolat tamoyillariga amal qilmasligi, ularning ba'zilarining mavjud real mahsulot yoki xizmatga ega emasligi, hujjatlarda faqatgina raqobatni imitatsiya qilish maqsadida qatnashayotgan holatlari ham kuzatilmoqda.

Davlat xaridlarini tashkil etish vaqtida tovar-xom ashyo birjasida nomaqbul xo'jalik yurituvchi subyektlarga duch kelinayotgani, ular tomonidan shartnoma shartlari yetarlicha o'rganilmasdan yutib olinishi, belgilangan vaqtda tovarlar yoki xizmatlar yetkazib berilmasligi, hamda yakunda ko'plab shartnomalarning bekor qilinishiga olib kelayotgan amaliy holatlar OTMlarning moliyaviy rejalashtirishiga va infrastrukturaviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu holatlarda davlat xaridlarida tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning sifati va narx parametrlari o'rtasidagi bog'liqlik alohida e'tiborni talab qiladi. Rossiyalik olim A.Yu. Gushchin o'z tadqiqotlarida aynan narx parametrlariga asoslangan holda tovarlar, ishlar va xizmatlar sifatini baholash mezonlarini ishlab chiqqanini ta'kidlash joiz. Ushbu yondashuv OTMlarda xarid jarayonlarini takomillashtirishda amaliy vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Narx ko'rsatkichining pasayishi xizmat, ish yoki tovar sifatining kamayishiga olib keladi. Narx o'zgarishi 5 foizgacha bo'lgan hollarda sifat yuqori bo'lib, buyurtmachidan maxsus nazorat talab etilmaydi. Biroq narx 15 foizdan oshganda, xizmat sifati o'rtacha yoki past darajaga tushadi va bu holda shartnoma bajarilishi ustidan buyurtmachi tomonidan kuchli nazorat zarur bo'ladi. Ayniqsa, 35 foizdan ortiq pasayishlarda sifat juda past bo'lib, favqulodda e'tibor talab etiladi. Bu holat davlat xaridlarida faqat eng past narx emas, balki sifat mezonlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi(3-jadval).

3-jadval. Narx parametrlariga muvofiq ishlar, xizmatlar, tovarlarni yetkazib berish sifatini baholash.

Narx ko'rsatkichini o'zgartirish	Sifat nazorati	Buyurtmachidan talab etiladigan harakatlar
$R < 5\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning yuqori sifati	Bu yerda hech qanday maxsus harakat talab etilmaydi
$5\% < P < 15\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning yuqori sifati	Hech qanday maxsus xarakat talab etilmaydi
$15\% < P < 25\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning o'rtacha sifati	Pudratchining shartnomani bajarishga e'tibori
$25\% < P < 35$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning ikkinchi o'rtacha sifati	Tanlov g'olibining shartnomani bajarishga alohida e'tibor
$P < 35\%$	Xizmatlar, ishlar, tovarlarni yetkazib berishning past sifati	Tanlov g'olibi tomonidan shartnomani bajarishga favqulodda e'tibor

Buyurtmachining zaruriy harakatlari – bu parametr, avvalo, bajarilgan ishlar va yetkazib berilayotgan tovarlarning sifatini tanqidiy qabul qilish, shuningdek, texnik nazoratni amalga oshirishda ifodalanadigan amaliy choralarni anglatadi. U, ayni paytda, buyurtmachining yetkazib beruvchi tomonidan taklif etilayotgan narx parametrlariga nisbatan munosabatini ham aks ettiradi. Ushbu jadvalda keltirilgan narx ko'rsatkichlari ta'siri, ayniqsa, rivojlangan davlatlarda qurilish va ta'mirlash ishlarida narx-sifat bog'liqligini baholashda qo'llaniladi va amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi taqdim etgan 2024-yilning 9 oylik statistik ma'lumotlariga ko'ra, davlat xaridlari doirasida tuzilgan shartnomalarda quyidagi holatlar kuzatilmoqda: davlat xaridlarining umumiy hajmida yagona yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar ulushi 39,9 foizni, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma asosida amalga oshirilgan xaridlar ulushi esa 39,7 foizni tashkil etmoqda. Boshqa xarid turlari esa nisbatan past ulushga ega. Bu holat davlat buyurtmachilari uchun to'g'ridan-to'g'ri va soddalashtirilgan mexanizmlar orqali xaridlarni amalga oshirish afzalroq ekani, bu esa mavjud moliyaviy resurslardan tezkor va samarali foydalanishga imkon berishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning global iqtisodiyotga integratsiyalashuvi, moliyaviy bozorlarning liberallashtirishuvi, raqamli texnologiyalarning jadal joriy etilishi sharoitida ta'lim tizimida ham iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar izchil davom ettirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat bilim beruvchi tizim, balki iqtisodiy jarayonlarning faol subyekti sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli ularning moliyaviy mustaqilligi va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlari bevosita davlat xaridlari tizimining soddaligi va moslashuvchanligiga bog'liq.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

OTMLar tomonidan byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzishga ruxsat berilishi;

Yagona yetkazib beruvchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish tartibining soddalashtirilishi;

Joriy va mukammal ta'mirlash ishlari bo'yicha o'tkaziladigan tender savdolari uchun e'lon berish muddati 10 kungacha qisqartirilishi.


Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi oliy ta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, infratuzilmani yaxshilash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 21-avgustdagi "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ–4812-son qarori.



2. Трансформация системы государственных закупок в российской экономике: Автореф. дис. д-ра экон. наук. – М.: 2009. – 56 с.
3. Бордунова С.А. Право и экономика, 2009. – № 1.
4. <https://cbu.uz/ru/arkhiv-kursov-valyut/>
5. Гущин А.Ю. Определение эффективности и способы её оценки в системе государственного заказа // Фундаментальные исследования. – 2012. – № 9-1. – С. 204–208; URL: <http://www.fundamental-research.ru/ru/article>
6. Burxonov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. – T.: “Fan va texnologiya”, 2012. – 152 b.
7. www.lex.uz – Milliy qonunchilik bazasi
8. O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi va O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining hisobot ma’lumotlari.
9. <https://www.mf.uz/uz>



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100